



INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH

M.J.Shodiyeva,

Renessans ta'lim universiteti

«Pedagogik ta'lim va psixologiya» kafedrasi mudiri, p.f.d.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932810>

XXI asr boshlarida barcha rivojlangan mamlakatlarning ilmiy siyosati fanning o'z potensialini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning yutuqlarini samarali amalga oshirishni taxmin etadigan jarayonlarga ham qaratilmoqda. Jumladan, innovatsiyalarni yaratish va tarqatishning yagona, puxta ishlab chiqilgan mexanizmi hozirgi vaqtda jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy quroliga aylanmoqda. Jamiyat hayotida ro'y berayotgan hozirgi o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi muammolarni qo'yimoqda-ki, bularga nimani o'qitish va qanday o'qitish muammosi dolzarb qilib qo'yilmoqda.

O'qitish asrlar davomida ma'lum bilimlar majmuini egallashdan iborat bo'lib kelgan bo'lsa, hozirgi paytda bilimlarning bir avlod hayoti davomida eskirib qolayotganligini kuzatish mumkin. Bunda, bilimlar hajmi, hatto ayrim ixtisosliklar doirasida ham shunchalik ulkanki, mavjud o'qitish metodikalari asosida uni o'zlashtirish amalda mumkin bo'lmay qoldi. Bularning hammasi ta'lim oldida yangi axborotni mustaqil qabul qilish, baholash va tegishli qarorlarni qabul qilishga qodir bo'lgan ijodkor shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda.

XX asrda ro'y bergan ko'pchilik falokatlarning sababi texnikaning o'zidagina emas, balki kasbiy omilkorlikning yetishmasligida hamdir. Bunday muammolarni hal etishda ta'lim ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish va raqabotbardosh kadrlarni tayyorlash masalasi pedagogik texnologiya va uning tamoyillari asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya jarayonining loyihalari hamda uni amaliyotda qo'llashda foydalaniladigan zamonaviy va interfaol usullarning asoslarini yaratish asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiyani samarali tashkil qilish uchun yangi ta'lim texnologiyalariga sifat jihatdan tez o'tish uchun obyektiv asos yuzaga keldi, chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o'z-o'zidan ta'limda ham tub o'zgartirishlarni taqozo etmoqda. Hech bir o'qituvchi ertami-kechmi bu jarayondan chetda qolishi mumkin emas. O'qituvchining an'anaviy ish usullari fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yoki o'qitishni kompyuterlashtirish sifatlarini o'zlashtirish zaruriyati bularni ilmiy-metodik asoslash ehtiyojining tug'ilishida obyektiv omil bo'lib qolmoqda.



Bizga yaxshi ma'lumki, Pedagogikada boshqa sohalardan olingan ko'plab atamalardan foydalaniladi, bu pedagogikaning boshqa fanlar bilan chuqur aloqada ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, bugun o'qitishning samaradorligi va oqilonaligi, o'qituvchi, texnika va texnologiya, ta'lim iqtisodiyoti, o'qitishni kompyuterlashtirish kabilar omil bo'ladi.

Adabiyotlarda "Yangi tartib-qoida", "yangilik", "innovatsiya" tushunchalarining ma'noviy mazmunini aniqlash borasida turlicha talqinlar mavjud. Gap shundaki, Hozirgi zamon tilida bu so'zlar yetarlicha o'xshash va ular yangi tartib, usul yoki ixtiro sifatida talqin etiladi. "Yangi tartib-qoida" moddiy ma'noda aslida ijobiy ilg'or yangilikni, bu tushunchani qabul qiladigan va undan foydalanadigan tashkiliy tizim uchun yangi bo'lgan g'oya, faoliyat yoki moddiy obyektning anglatadi. Shu bilan bir qatorda "yangi tartib-qoida" atamasi kasbiy ma'noda yangi va foydali natijani yuzaga keltirish, ishlab chiqish, moslashtirish va foydalanish jarayoni sifatida qabul qilinadi[1; 67-b.].

Yangi tartib-qoidalarni amalga oshirish jarayonida ro'y beradigan ilmiy-texnik, texnologik, tashkiliy o'zgarishlar ko'pincha yangi kiritiladigan tartib-qoida yoki innovatsion jarayon sifatida aniqlanadi. Yangi tartib-qoidani yaratish, yoyish va foydalanish davri innovatsion sikl deb ataladi. "Yangi tartib-qoida" tushunchasining turli talqinlarini qarab chiqib, ba'zi umumlashtiruvchi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, istalgan yangi tartib-qoida amaliy xarakterdagi yakuniy natija, ya'ni ma'lum ijtimoiy ehtiyojni qanoatlantirishga qaratilgan aniq yo'nalishga ega.

Ikkinchidan, tartib-qoidaga doimo bashorat qilish va boshqarilish obyekti bo'lishi lozim bo'lgan murakkab jarayon sifatida qaraladi.

Uchinchidan, yangi tartib-qoidani amalga oshirish ijtimoiy mehnatning turli sohalarida tadqiqot va ishlab chiqish jarayonlarini jadallashtirish bilan bog'liq.

To'rtinchidan, har bir yangi tartib-qoida ma'lum texnik, iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishishni ta'minlashi lozim.

Shunday qilib, "yangi tartib-qoida" va "innovatsion jarayon" atamaları aynan o'xshash, bir xil ma'noga ega. Innovatsiyalar ta'limning boshlanganidan buyon, yangilik kiritish, mavjud ta'limni o'zgartirish, takomillashtirish va yaxshilash sifatida u bilan yonma-yon kelmoqda. Ta'limdagi innovatsiya so'nggi davrlar mahsuli emas, biroq uni pedagogik kategoriya sifatida juda yosh deb hisoblash mumkin. Bu uning ta'riflanishidagi xilma-xilliklarga asosiy sabab bo'lmoqda.

Ko'pincha "innovatsiya" atamasi o'rniga unga yaqin turdagi atamalar ham ishlatilmoqda. Masalan, isloh modernizatsiya, takomillashtirish, zamonaviylashtirish kabilar. Ular tahlil etilayotgan tushunchaning ma'nosini har doim ham to'la ochib beravermasa-da, asosiy narsa – yangilikni, o'zgarishlarni ifodalaydi[1; 24-b.].



Innovatsiyaning turli ta'riflariga to'xtalib o'taylik. "innovatsiya" (yangilik) lug'atlarda va ensiklopediyalarda turlicha talqin etiladi. Masalan, "innovatsiya" (lotincha inovatis) – yangilik, yangi tartib-qoida, o'zgarish degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya biror yangi narsa, tartib-qoidaning kiritilishini anglatib, u lotin tilidan kelib chiqqan: in- novis – yangi va yangilanish, yangilik, o'zgarishni anglatadi. "Yangilik" atamasi yangilik, yangilanish sifatida anglatadi. Yangilik bu texnik, texnologik ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. U (innovatsiya) pedagogik kategoriya sifatida ta'limga yangilik kiritishni ifodalaydi. Yangilik ko'pincha yangi usul, vosita, yangi konsepsiya, dastur kabilarning kiritish hamda qo'llashga ham xosdir. "Yangilik" atama sifatida ta'limni modernizatsiyalash yoki zamonaviylashtirish tushunchasi mohiyatini yoritadi. Aksariyat ta'riflarda yangilik o'zgarishni anglatadi, degan fikr ustun turadi. Lekin bunda ayrim yangi o'zgarishlarni, boshqalar esa miqdoriy o'zgarishlarni, uchinchi bir odamlar sifat – biror yangi narsa, modellarni kiritish jarayonini nazarda tutadilar.

Shunday qilib, biz o'z ishlarimizda oliy ta'lim pedagogikasida "innovatsiya" ("yangilik") tushunchasi orqali o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirish, pedagogik texnologiya tamoyillari asosida fanlarning o'quv mashg'ulotlarini moduli texnologiya asosida loyihalashga yo'naltirilgan didaktik, metodik hamda tashkiliy-texnik o'zgarishlarni ifoda etdik[1; 29-b.]. Yangi tartib-qoidalarning uzluksizligi Ta'lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo'lgani sababli, u o'z rivojlanishida jamiyatdagi yo'nalishlarga ergashib ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olishi lozim. Ana shu doirada innovatsiyalar ta'lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, yangiliklarning boshqa sohalarida muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'lim sohasidagi yangi tartib-qoidalarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Ta'limdagi yangilik, ta'lim jarayoniga alohida e'tibor berish, yangi bilimlarni fanlar asosiga tayanib aniqlash, ularni ixtirochilik va mohirlik bilan topish yoki fanlarning sintezlashuvi va integrallashuvi orqali yaratish tushunilib, ta'limning innovatsiyalashuvi-ta'limning ilmiy bilimlar, ilmiy metodologiya va innovatsiyalarni rivojlanuvcha-ligiga asoslanish demakdir. Pedagogik va axborot texnologiyalari ham ta'limdagi innovatsiyalardir.

Ta'lim tarbiya ishidan insonlar – jamiyat ham manfaatdor bo'lishi lozim. Bularning hammasi, mehnatning barcha sohalaridagi innovatsion faoliyat ijtimoiy rivojlanishi bilan birgalikda uning istiqbolini belgilash va tashkil etish xarakterida bo'lishini talab qiladi. Darvoqe, ta'lim tarbiyadagi yangiliklar xuddi o'sha maqsadni ko'zda tutadi va shunday ahamiyatga ega: ular xuddi jamiyatdagi kabi uning rivoji va taraqqiyotiga ko'maklashishi kerak.



Jamiyatdagi yangiliklar ommaviy va uzluksiz xarakterda ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular ta'lim-tarbiyada ham ana shunday xarakterda bo'lishi lozimligi ayon bo'ladi. Bularning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va shaklini tashkil etilishi, shuningdek, yangi tartib-qoidalar kiritilishi zaruriyatini yaratadi. Ular o'qitishning bevosita maqsadlariga erishishnigina emas, balki jamiyatning uzoq muddatli vazifalarini hal etishga ham qaratilgan bo'ladi. Shunday qilib, ta'limdagi yangi tartib-qoidalar kelajakka qo'yilgan uzoq muddatli investitsiyadan iboratdir.

Ta'lim yangiliklarni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki ularni yaratadi ham. Ular orqali esa pedagog-novatorlarni tarbiyalashni amalga oshiradi. Ijodkorlik ishi (shu jumladan, ta'limda ham) hamma vaqt yangi tartib-qoidalarining tarkibiy qismi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Garchi, vaqti kelib o'qituvchilar o'rnini o'qitadigan mashinalar egallaydi degan fikrlar mavjud bo'lsa ham o'qituvchi (o'qituvchi shaxsi) ta'limda bilimlar va ijodkorlik jarayonlarining bevosita eltuvchisi sifatida markaziy o'rinni egallab qolaveradi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida fanlarning o'quv mashg'ulotlarini moduli texnologiya asosida loyihalarini tuzib chiqishda albatta, ijodkor o'qituvchilarning o'rnini beqiyosdir. Ilk bora o'quv mashg'ulotlarning loyihalarini tuzishning ilmiy-nazariy asosini yaratgan olimlar B.Ziyomammedov, L.V.Golish, M.Tojiyev, D.M. Fayzullayeva, H. Qarshiboyev, D.Yunusova boshqalarning ishlarida, uning amaliyotga tadbig'ini A.Alimov, M.Qo'chqarov, E.Sharipov, I.Zulfuqarov, M.O'ralova, G.Izetayeva, A.Xurramov va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin

Shuning uchun ham o'qituvchi ta'lim jarayonidagi barcha yangiliklar modernizatsiyasining amaliy jarayonlari majmuining markaziy bo'g'ini bo'lib qolaveradi. Aytilgan fikr avvalo, o'qituvchi mehnatida texnik yutuqlar, birinchi navbatda, kompyuter texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish zarurligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya bazasida o'qitishning maxsus didaktik vositalarini yaratishga taalluqli ishlarni amalga oshirish, o'tkazish zarurati, o'quv ishida pedagogik dasturlash vositalari, o'qitish vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan kompyuter dasturlari kabi yangi tartib qoidalardan yanada kengroq foydalanilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tajiyev M. Faoliyatshunoslik – barkamollikka erishishning innovatsion usuli. // [Matn]. Monografiya. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti. – T.: «DONISHMAND ZIYOSI», 2023. – 294 b.
2. Izetayeva G.K. Matematik fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishning nazariyasi va amaliyoti. // Monografiya. Pedagogika fanlari doktori, professor M.Tojiyevning umumiy tahriri ostida T.: «FAN VA TEXNOLOGIYA MARKAZINING BOSMAXONASI, 2013. -172 b.